

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining  
2024-yil 20-iyundagi  
190-sonli buyrug‘iga  
1-ILOVA

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida variativ o‘quv rejalarini  
joriy etish bo‘yicha  
TAVSIYA**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu tavsiya quyidagi normativ-huquqiy hujjalarga muvofiq ishlab chiqildi:  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi;  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzlusiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 12-avgustdagи PQ-4805-sон qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-martdagи PQ-5032-sон qarori.

2. Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 7-11-sinflarida variativ o‘quv rejalarini **ixtiyoriy ravishda** joriy qilinadi.

3. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv yili davomida variativ o‘quv rejalarini joriy etilgan sinflar (keyingi o‘rinlarda – tanlov sinfi) yo‘nalishini o‘zgartirishga va an‘anaviy sinfga aylantirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogika kengashi tomonidan tanlov sinfining yo‘nalishi joriy o‘quv yili yakunlanib, yangi o‘quv yili boshlanishi arafasida o‘zgartirilishi mumkin.

4. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sinfdagi o‘quvchilar, ularning ota-onalari hamda o‘qituvchilarning uchdan bir qismi norozi bo‘lsa ushbu sinfda variativ o‘quv reja joriy qilinmaydi.

**II. Variativ o‘quv rejalarining maqsadi**

5. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida variativ o‘quv rejalarini joriy etishning asosiy maqsadi:  
o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘quvchining manfaatlarini inobatga olish;  
o‘quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish;

o‘quvchilarning individual xohish-istiklari, qobiliyatlarini inobatga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish;

ta’lim muassasalarining o‘zida o‘quvchilarning oliv ta’lim muassasalariga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun sharoitlar yaratish va bu orqali ota-onalarning repetitorlarga ortiqcha mablag‘ sarflamasliklariga qo‘srimcha imkoniyatlar yaratish.

### III. Variativ o‘quv rejalarini joriy etish tartibi

#### 1-§. Tanlov sinfi

6. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining tegishli buyrug‘i bilan tasdiqlanadigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasi asosida o‘qitiladigan **an’anaviy sinflar** bilan birga, variativ o‘quv reja asosida o‘qitiladigan **tanlov sinfi** ham tashkil etilishi mumkin.

7. Tanlov sinfidagi o‘quvchilar soni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sun qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida Nizom”ga muvofiq bo‘lishi lozim.

Tanlov fanlari, ikkinchi xorijiy til, biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari hamda ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat umumta’lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflarida variativ o‘quv rejalar **tatbiq qilinmaydi**.

Tanlov sinfi umumiy o‘rta ta’lim muassasasida mavjud 7-11-sinflar o‘quvchilari kontingenti hisobidan tashkil etiladi.

8. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida bir nechta yo‘nalishda tanlov sinfi tashkil etilishi mumkin. Bunda, ta’lim muassasasida 7-11-sinflarning biridan bitta sinf mavjud bo‘lgan taqdirda ham tanlov sinfi tashkil etiladi.

Bunda, tanlov sinflarini quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etish tavsiya etiladi:

birinchi yo‘nalish: 7-11-sinflar uchun - **filologiya yo‘nalishi**;

ikkinchi yo‘nalish: 7-11-sinflar uchun - **xorijiy tillar yo‘nalishi**;

uchinchchi yo‘nalish: 7-11-sinflar uchun - **moliya – iqtisod yo‘nalishi**;

to‘rtinchi yo‘nalish: 7-11-sinflar uchun - **web-frilanser** (*internet tarmog‘i orqali mehnat daromadi olish*) **yo‘nalishi**;

beshinchi yo‘nalish: 7-11-sinflar uchun – **muhandislik (texnologiya) yo‘nalishi**;

oltinchi yo‘nalish: 7-11-sinflar uchun - **tabiiy fanlar yo‘nalishi**;

yettinchi yo‘nalish: 7-11-sinflar uchun - **ijitimoiy-gumanitar yo‘nalishi**;

sakkizinchi yo‘nalish: 7-11-sinflar uchun - **boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi**;

to‘qqizinchi yo‘nalish: 7-11-sinf uchun – **kimyo-texnologiya yo‘nalishi**;

o‘ninchchi yo‘nalish: 7-11-sinflar uchun - **geografiya va geologiya yo‘nalishi**;

o‘n birinchi yo‘nalish: 7-11-sinflar uchun - **maktabgacha ta’lim va psixologiya yo‘nalishi**;

o‘n ikkinchi yo‘nalish: 7-11-sinflar uchun - **tarix va arxeologiya yo‘nalishi**;

o‘n uchinchi yo‘nalish: 7-11-sinflar uchun - **turizm yo‘nalishi**;

o‘n to‘rtinchi yo‘nalish: 8-11-sinflar uchun - **yurisprudensiya yo‘nalishi**;

o‘n beshinchi yo‘nalish: 7-11-sinflar uchun - **ijitimoiy ish yo‘nalishi**;

o‘n oltinchi yo‘nalish: 7-11-sinflar uchun - *yo‘l harakati va hayot xavfsizligi faoliyati yo‘nalishi*;

o‘n yettinchi yo‘nalish: 7-11-sinflar uchun - *sport yo‘nalishi*;

o‘n sakkizinchi yo‘nalish: 10-11-sinflar uchun - harbiy vatanparvarlik yo‘nalishi.

9. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining tegishli **tanlov sinfida ta’lim jarayoni faqat bitta yo‘nalishda** olib boriladi. Bitta tanlov sinfiga ikkita yo‘nalishni tanlashga ruxsat berilmaydi.

10. Tanlov sinfi yo‘nalishi tegishli sinflar kesimida o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnama o‘tkazish orqali aniqlanadi.

11. O‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnama o‘tkazish va natijasini umumlashtirish uchun maktabda tanlov komissiyasi tuziladi.

Tanlov komissiyasi tarkibi quyidagicha shakllantiriladi:

komissiya raisi - maktab direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘ribbosari;

komissiya a’zolari – maktab psixolog, amaldagi tegishli sinf rahbarlari, fan metod birlashma rahbarlari va ota-onalardan vakil kiritiladi;

Bunda, tanlov komissiyasi a’zolari tarkibiga fan o‘qituvchilari kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi (fan metod birlashma rahbarlari, sinf rahbarlari bundan mustasno).

12. So‘rovnomani o‘tkazish shakli tanlov komissiya tomonidan belgilanadi.

13. O‘quvchilar o‘rtasida tanlov sinfi yo‘nalishini aniqlashga qaratilgan so‘rovnomani o‘tkazish jarayonida ota-onalar ham farzandlari bilan birga ishtiroy etishi mumkin. Bunda, bir nafar o‘quvchi faqat bitta yo‘nalishni tanlaydi.

14. So‘rovnomani o‘tkazish va natijalarini umumlashtirish jarayonining shaffofligini ta’minalash, jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadida ushbu jarayonlarda maktabning Kuzatuv kengashi a’zolari kuzatuvchi sifatida ishtiroy etishi mumkin.

15. So‘rovnama natijasida tegishli tanlov sinfida o‘qishni xohlagan o‘quvchilar soni 35 nafardan oshib ketsa, bunday holda o‘quvchilar tanlov komissiyasi tomonidan tashkil etiladigan tegishli fan bo‘yicha sinov natijalari asosida tanlov sinfiga qabul qilinadi. Sinovdan o‘tolmagan o‘quvchi an’anaviy sinfda o‘qishini davom ettiradi.

Agarda tanlov sinfida o‘qishni xohlagan o‘quvchilar soni 35 nafardan ortiq bo‘lmasa, bunday holda o‘quvchilar tanlov sinfiga sinovsiz qabul qilinadi.

Bundan tashqari, maktabda tegishli sinf bitta bo‘lsa, ushbu sinfning barcha o‘quvchilari belgilangan yo‘nalishlardan birida ta’lim olish istagini bildirsa, bunday holda ushbu sinfdagi o‘quvchilarning sonidan qat’iy nazar barcha o‘quvchilar tanlov sinfiga sinovsiz qabul qilinadi.

16. Ota-onalar farzandlarini tanlov sinfiga qabul qilishi to‘g‘risida direktor nomiga ariza yozishadi.

17. O‘quvchilarga o‘quv yili davomida tanlov sinfidan an’anaviy sinfga yoki an’anaviy sinfdan tanlov sinfiga o‘tishiga ruxsat berilmaydi.

18. O‘quvchilar eng ko‘p tanlagen yo‘nalish bo‘yicha sinflar soniga mutanosib ravishda yangidan sinflarga ajratiladi. Bunda, sinflar soni mavjud tegishli sinflar sonidan oshib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

19. Maktab direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari va fan metodbirlashma rahbarlari tomonidan tanlov sinfi yo‘nalishi, tanlov fanlari, dars soati, o‘quvchilar ro‘yxati, sinf rahbari va mazkur fanlardan dars beruvchi o‘qituvchilar to‘g‘risida ma’lumot tayyorlanadi.

20. Ushbu ma’lumot mакtab pedagogika kengashida muhokama qilinib, kengashda tanlov sinfi yo‘nalishi, tanlov fani o‘qituvchilar, ularning dars soati, sinf rahbarini belgilash, o‘quvchilar ro‘yxatini tasdiqlash bo‘yicha tegishli qaror qabul qilinadi. Ushbu pedagogika kengashi qarori asosida mакtab direktorining buyrug‘i chiqariladi.

21. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining tanlov sinfida tegishli tanlov fanlaridan birinchi navbatda oliy, birinchi yoki ikkinchi toifali o‘qituvchilar, ular mavjud bo‘lmagan taqdirda izlanuvchan mutaxassis o‘qituvchilar ham dars berishi mumkin.

22. Tanlov sinfi yo‘nalishidan kelib chiqib, direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli fan metodika birlashmasi va tanlov fani o‘qituvchilar bирgalikda Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy taqvim-mavzu rejaliри asosida (*ushbu rejaga 30%gacha o‘zgarishlar kiritilishi mumkin*) tanlov sinfining taqvim-mavzu rejasini tuzadi va ushbu reja mакtab direktori tomonidan tasdiqlanadi.

23. Variativ o‘quv rejalar Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Variativ o‘quv reja **mажбурий** va **tanlov** fanlaridan iborat bo‘ladi.

24. Tanlov fani uchun ajratilgan soatlarda quyidagilar amalga oshiriladi:

o‘quvchilarga fanlarni chuqur o‘rgatish va tegishli mavzulariga doir qo‘shimcha ma’lumotlar berish;

o‘quvchilar bilimini mustahkamlash va mavzularni to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minalash;

Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligi tomonidan tavsiya etiladigan ta’lim resurslari platformalaridan foydalanish;

qo‘shimcha adabiyotlardan misol va masalalar, testlar yechish;

oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini jalb qilgan holda amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish;

o‘quvchilarni oliy ta’lim muassasalarining kirish imtihonlariga tayyorlash.

25. Tanlov fanlarini o‘qitishda darsliklardan tashqari, qo‘shimcha adabiyot va manbalardan foydalanish mumkin.

26. Variativ o‘quv reja asosida ta’lim olgan 11-sinf bitiruvchilarining umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi shahodatnomasiga yakuniy baholar quyidagicha qo‘yiladi:

variativ o‘quv reja bo‘yicha 11-sinfda o‘qitilgan barcha fanlardan yillik (yakuniy) baholari sinf jurnallari (bosma yoki elektron) asosida qo‘yiladi;

10-11-sinflarda variativ o‘quv reja asosida tashkil etilgan sinflarda o‘tilmagan fanlarning baholari 9-sinf tayanch o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi shahodatnomasidan ko‘chiriladi;

variativ o‘quv reja asosida tashkil etilgan sinflarda o‘tilmagan “**Tadbirkorlik asoslari**” va “**Astronomiya**” fanlari bo‘yicha baholar qo‘yilmaydi.

#### **IV. Yakuniy qoidalar**

27. Tanlov sinfini tashkil etish yoki uni tugatish maktabning pedagogika kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.